



## INTERNATIONAL LEGAL ASPECTS OF MODERNIZING ADVOCACY ACTIVITY

**Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi**

Master's Student of Tashkent State University of Law

[ergashevagulhayo526@gmail.com](mailto:ergashevagulhayo526@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20202307>

### ARTICLE INFO

Received: 07<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 13<sup>th</sup> May 2026

Online: 14<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

Modernization of the  
advocacy institution;  
comparative legal  
analysis; Singapore bar;  
Japanese bengoshi;  
Kazakhstan bar reforms;  
digitalization; free legal  
aid; professional  
independence; continuing  
education.

### ABSTRACT

*This article presents a comparative legal analysis of experiences in modernizing the institution of advocacy in the Republic of Singapore, Japan, the Republic of Kazakhstan, as well as Germany and France. In the course of the research, the institutional model of each state, the directions of reforms, the system of free legal aid, digitalization, and continuing education mechanisms are examined. As a conclusion, six key trends in the modernization of the advocacy institution are identified, and their practical significance for national reforms is substantiated.*

## МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ МОДЕРНИЗАЦИИ АДВОКАТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Эргашева Гулхаё Ўткир қизи**

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

[ergashevagulhayo526@gmail.com](mailto:ergashevagulhayo526@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20202307>

### ARTICLE INFO

Received: 07<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 13<sup>th</sup> May 2026

Online: 14<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

Модернизация  
института  
адвокатуры;  
сравнительно-правовой  
анализ; адвокатура  
Сингапура; японский  
bengoshi; реформы  
адвокатуры  
Казахстана;  
цифровизация;

### ABSTRACT

*В настоящей статье проводится сравнительно-правовой анализ опыта модернизации института адвокатуры в Сингапуре, Японии, Республике Казахстан, а также в Германии и Франции. В ходе исследования изучены институциональные модели каждого государства, направления реформ, системы бесплатной юридической помощи, механизмы цифровизации и непрерывного образования. В заключение выделены шесть основных тенденций модернизации института адвокатуры и обоснована их практическая значимость для национальных реформ.*



бесплатная  
юридическая помощь;  
профессиональная  
независимость;  
непрерывное  
образование.

## ADVOKATLIK FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHNING XALQARO HUQUQIY JIHLTLARI

**Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ergashevagulhayo526@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20202307>

### ARTICLE INFO

Received: 07<sup>th</sup> May 2026

Accepted: 13<sup>th</sup> May 2026

Online: 14<sup>th</sup> May 2026

### KEYWORDS

Advokatlik institutini  
modernizatsiya qilish;  
qiyosiy-huquqiy tahlil;  
Singapur advokaturasi;  
Yaponiya bengoshi;  
Qozog'iston bar  
islohotlari;  
raqamlashtirish; bepul  
yuridik yordam; kasbiy  
mustaqillik; uzluksiz  
ta'lim.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Singapur, Yaponiya, Qozog'iston Respublikalari, shuningdek Germaniya va Fransiya davlatlarida advokatlik institutini modernizatsiya qilish sohasidagi tajribalar qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot davomida har bir davlatning institutsional modeli, islohotlar yo'nalishlari, bepul yuridik yordam tizimi, raqamlashtirish va uzluksiz ta'lim mexanizmlari o'rganilgan. Xulosa sifatida advokatlik institutini modernizatsiya qilishning olti asosiy tendentsiyasi ajratilgan va ularning milliy islohotlar uchun amaliy ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kirish.** Xorijiy mamlakatlar advokatura institutlari qiyosiy-huquqiy tahlili turli mamlakatlardagi mazkur institutning o'ziga xos va bir-biridan farqlovchi xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Yuridik fanda qiyosiy-huquqiy tahlil turli huquqiy tizimlar, shu jumladan, advokaturani o'rganishning muhim usullaridan biridir. Tahlilning bu turini qo'llash turli huquqiy tizimlardagi

advokaturaning umumiy, alohida va mushtarak xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Turli mamlakatlardagi advokatura institutini o'rganishda qiyosiy-huquqiy tahlilni qo'llash tizimli va aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilgandagina, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafqiyatli amalga oshira oladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Rustamboyev M.X., Tuxtasheva U.A. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati: darslik. —

Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. — 190 b.



Hozirgi kunda advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi jahon huquqiy fani va amaliyotida muhim o'rin egallamoqda. Huquqiy xizmatlar bozorining globallashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va fuqarolarning yuridik yordamga bo'lgan talabini ortib borayotganligi turli huquqiy tizimlarga mansub davlatlarni advokatlik institutining institutsional asoslarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda xalqaro qiyosiy tahlilning uch darajasi ajratiladi: mikroqiyoslash — advokatura to'g'risidagi huquqiy normalarni bevosita qiyoslash; o'rta qiyoslash — advokatura institutlari va kasbiy kafolatlar masalalarini tadqiq etish; makroqiyoslash — turli huquqiy tizimlardagi advokatlik institutlarini shakllanishi va asosiy prinsiplari nuqtai nazaridan har tomonlama tahlil qilish. Ushbu maqolada— Singapur, Yaponiya, Qozog'iston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Turkiya advokatlik institutini modernizatsiya qilish tajribasini tahlil etish hamda umumiy tendentsiyalarni aniqlash masalalari ko'rib chiqiladi.

Dunyo huquqiy tizimlarini o'rganish asosida advokatura institutini tashkil etishning ikki asosiy modelini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi — Anglo-sakson modeli: advokatlarning erkin va raqobatbardosh

faoliyat yuritishi, ishonch bildiruvchiga yo'naltirilganlik va ixtisoslashuv ustun; Buyuk Britaniyada solisitor (umumiy maslahat) va barrister (sudda vakillik) o'rtasidagi institutsional bo'linish bu modelning o'ziga xos belgisidir. Ikkinchi — Kontinental model: advokat odil sudlov organining bir qismi deb tan olinib, uning faoliyati nafaqat mijoz, balki umum manfaatlariga ham qaratilgan; davlat bilan sheriklik va qat'iy intizomiy nazorat bu modelning asosini tashkil etadi. Zamonaviy islohotlarda ushbu ikki modelning afzalliklarini birlashtirgan aralash yondashuv tobora keng tarqalmoqda.<sup>2</sup>

Ushbu rivojlanish yo'nalishlarini turli xil xorijiy davlatlar tajribasida ko'rib chiqamiz. **Singapur** advokatlik tizimi subsidiarlik tamoyiliga asoslangan gibril modelni ifodalaydi. Davlat sektori uchta muassasadan tashkil topgan: 1995-yilgi qonun asosida fuqarolik va oilaviy ishlarda bepul yordam ko'rsatuvchi Yuridik yordam byurosi (LAB); 2022-yil 1 -dekabrdan faoliyat ko'rsatayotgan, o'lim jazosi ko'zda tutilmagan jinoiy ishlarda himoya ko'rsatuvchi Davlat himoyachilar boshqarmasi (PDO — Public Defenders Act 2022, 23-son); o'lim jazosi ko'zda tutilgan ishlar uchun maxsus LASCO dasturi.<sup>3</sup>

Nodavlat sektorda asosiy rol ni Pro Bono SG tashkiloti (UEN № 201700430E) o'ynaydi. Dastlab Singapur Huquqiy hamjamiyatining tarkibiy bo'linmasi bo'lgan ushbu tashkilot

<sup>2</sup> Sabirboyev S.G'. G'arbiy Yevropa davlatlarida advokatura institutining o'ziga xos xususiyatlari va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — Vol. 2. — № 4. — B. 804.

<sup>3</sup>Yuridik yordam va konsultatsiyalar to'g'risidagi qonun (LAAA 1995), № 20 // Singapore Statutes Online. URL:

<https://sso.agc.gov.sg/Act/LAAA1995>



mustaqil yuridik shaxsga aylandi. U fuqarolik (FJSS), jinoiy (CLAS) va umumiy maslahat dasturlari orqali bepul yordam ko'rsatadi. 2014–2023 yillar mobaynida huquqiy klinikalar orqali 21 830 ta bepul konsultatsiya o'tkazildi; 2023–2024 moliyaviy yilida byudjet 5,25 million Singapur dollariga yetdi va moliyalashtirishning asosiy manbai korporativ sektorning badallari bo'ldi.<sup>4</sup>

Raqamlashtirish yo'nalishida Singapur 2014-yildan buyon «Aqli millat» (Smart Nation) strategiyasini izchil amalga oshirmoqda. LAB da sun'iy intellekt asosidagi iLAB chatboti; PDO da audio va video fayllarni matnga aylantirish, hujjatlardan ma'lumot ajratib olish imkonini beruvchi LegalServer platformasi; Pro Bono SG da advokat tanlash va ariza tahlilida sun'iy intellekt vositalari joriy etildi. 2022-yilda Legal Technology Platform (LTP), 2025 yilda esa LIFT dasturi ishga tushirildi.<sup>5</sup>

2024-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan Oliy sud «Generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanmasi» sun'iy intellektni advokatlik amaliyotida qo'llashning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Qo'llanmaning 5.4-bandiga ko'ra, advokatlar generativ sun'iy intellektdan foydalanliklarini oshkor etishlari; 5.5-bandga ko'ra esa barcha ma'lumotlarning aniqligi uchun shaxsan javobgar bo'lishlari shart. Ushbu tartib —

texnologiyani vosita sifatida tan olish va kasbiy javobgarlikni saqlab qolish tamoyili — xalqaro amaliyotda ibratli tajriba sifatida baholanmoqda.<sup>6</sup>

Hozirgi kunda **Yaponiyada** yuridik kasb uch ixtisoslashgan mutaxassislik doirasida taqsimlangan: bengoshi sudda qatnashish, shartnoma va korporativ ishlarni bajaradi; shihō shoshi ko'chmas mulk va tijorat ro'yxatga olishda ixtisoslashgan; gyōsei shoshi ma'muriy protseduralar, ruxsatnomalar va viza arizalari bo'yicha xizmat ko'rsatadi.<sup>7</sup> Bunday «mehnat taqsimoti» tizimi ko'pchilik G'arb davlatlarida bitta advokat egallagan vakolatlar doirasini uchga bo'ladi va har bir yo'nalishda chuqur ixtisoslashuvni ta'minlaydi.

Advokatlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi uzoq yillar davomida past bo'lib kelgan: bitta advokat uchun 6 300 nafar aholi to'g'ri kelgan (AQShda — 290, Buyuk Britaniyada — 710, Germaniyada — 740, Fransiyada — 1 640 nafar). 2002-yilda 41 459 abituriyentdan atigi 1 183 nafari (2,85%) Milliy Bar imtihonini topshirdi. Muvaffaqiyatli nomzodlar Oliy sud qoshidagi institutda 18 oy amaliy ta'lim oldi: 3 oy nazariy mashg'ulot, 12 oy tuman sudi, prokuratura va advokat ofisida amaliyot (har biriga 3 oy), 3 oy yakuniy tekshiruv.

Natijada advokatlar soni oshdi, biroq ta'lim sifatini nazorat qilish va yangi bitiruvchilar malakasini ta'minlash

<sup>4</sup>Pro Bono SG. Justice for All: Annual Report 2022/2023. — Singapore, 2023. — S. 6. URL: <https://www.probono.sg>;

<sup>5</sup>Reinventing Law: Singapore's Legal Professionals in Transformation // BDO Singapore Spotlight. October 2025. URL: <https://www.bdo.com.sg>;

<sup>6</sup>Guide on the Use of Generative AI Tools by Court Users. 1 oktyabr 2024 y. // Supreme Court of Singapore. URL: <https://www.judiciary.gov.sg>;

<sup>7</sup>Akane T. Reform of the Legal Training System in Japan // UNAFEI Joint Seminar with Indonesia. Session 3. — P. 91–115. URL: [https://www.unafei.or.jp/activities/pdf/joint\\_indonesia/session3.pdf](https://www.unafei.or.jp/activities/pdf/joint_indonesia/session3.pdf). — P. 94;



muammosi alohida muammo sifatida qolmoqda. 253 ta yurisdiksiyadan 119 tasida 4 nafar yoki undan kam advokat faoliyat yuritganligi — qishloq aholisining adliyaga kirish muammosini ko'rsatib, geografik nomutanosiblikni bartaraf etish ham - islohotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi.

**Qozog'iston** advokatlik institutining rivojlanishini uch davrga bo'lish mumkin: Sovet davri — yuridik maslahat idoralari davlat organi maqomida faoliyat yuritdi; 1991–1997 yillar — mustaqillikdan keyin darhol islohotlar o'tkazilmadi; 1997 yildan bugun — birinchi advokatlik qonuni qabul qilinishi bilan islohotlar boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan korporativ huquq, xalqaro tijorat arbitraj va boshqa yangi sohalarida malakali advokatlar yetishmovchiligi aniq ko'zga tashlandi.<sup>8</sup>

2018 yil 5-iyulda «Advokatlik va yuridik yordam to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Biroq u «ikkilik» muammosini to'liq bartaraf etmadi: advokatlar jinoiy va ma'muriy ishlarda vakillik qilsa, maslahatchilar xususiy huquq sohasida xizmat ko'rsatdi. 2016-yilgi xalqaro konferensiyada ushbu paradoks ochiq qayd etildi: faqat advokatlar qattiq tartibga solingan — jinoiy sudlanganlik yo'qligi, ruhiy holati va yoshi bo'yicha mezonlarga javob berishi, soliq cheklovlariga bo'ysunishi shart — vaholangki, litsenziyasiz

huquqiy xizmat ko'rsatuvchi uchun hech qanday tartibga solish talabi mavjud emas.<sup>9</sup> Bu nomutanosiblik advokatlarning raqobatbardoshligini pasaytirib kelmoqda.

Qozog'iston 2015-yil 30-noyabrda JST ga a'zo bo'lgach, GATS majburiyatlari doirasida xorijiy advokatlarning mahalliy bozorga kirishi masalasi ham keskin ko'tarildi. Yetakchi mutaxassislar yagona, mustaqil o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilot barpo etishni taklif etmoqda: advokat ommaviy-huquqiy vazifani va mustaqil kasbiy xizmat ko'rsatish vazifasini bir vaqtda amalga oshiruvchi ikki yoqlama institut sifatida belgilanishi zarur, deyilmoqda.<sup>10</sup>

Xalqaro hamjamiyat islohotlarga faol ko'mak ko'rsatmoqda. 2017-yil 28-aprelda YXHT ko'magida o'tkazilgan «Yumaloq stol» muzokarasida 60 dan ortiq davlat amaldori, Adliya vazirligi, Oliy sud va xalqaro ekspertlar ishtirok etdi. Adliya vazirligi tomonidan advokatlarning uzluksiz ta'limi va pro bono yordamni kengaytirishni islohotning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi. Qozog'iston tajribasi shundan dalolat beradiki, Sovet merosidan chiqish va xalqaro standartlarga muvofiqlik — tez sodir bo'ladigan o'zgarish emas, uzoq muddatli institutsional evolyutsiyani talab etadigan jarayon.

**Germaniyada** advokatlik faoliyati 1959-yilgi Federal qonun (BRAO) bilan tartibga solinadi. Fuqarolik protsessual

<sup>8</sup>Kenjebayeva A. The Development of Kazakhstan's Legal Profession and Code of Ethics // PRG (Paragraf). 29 April 2016. URL: [https://prg.kz/document/?doc\\_id=34332558](https://prg.kz/document/?doc_id=34332558)

<sup>9</sup>Conference in Kazakhstan 'Stronger when united: new challenges and perspectives'. Astana, 27–28 October 2016. — P. 5. IBA Bar Issues Commission, European Lawyers Foundation, Republican

Collegium of Advocates of Kazakhstan. (keyingi o'rinlarda: IBA Conference, 2016).

<sup>10</sup>OSCE promotes development of legal profession in Kazakhstan // OSCE Programme Office in Astana. 3 May 2017. URL: <https://astana.osce.org/programme-office-in-astana/314841>; IBA Conference, 2016. — P. 12.



kodeksiga binoan, 5 000 yevrodan ortiq so'mmalar bo'yicha Mintaqaviy sudlarda (Landgericht) faqat bar a'zosi advokat tomonidan vakillik qilinishi mumkin — «qurol tengligi» (Waffengleichheit) tamoyilini ta'minlash uchun. Kichik da'volar (5 000 evrogacha) uchun Mahalliy sudda (Amtsgericht) vakilsiz ishtirok etish ruxsat etiladi; moddiy imkoniyati past tomonlar uchun «zudlik bilan advokat» (Notanwalt) tayinlash mexanizmi ko'zda tutilgan. Advokat yolg'iz yurist sifatida ishlay oladi, ammo mehnat shartnomasi bo'yicha yuriskonnsult bo'lib ishlay olmaydi — bu kasbiy mustaqillikni saqlash uchun qat'iy talabdir.

Germaniyada o'tkazilgan empirik tadqiqot (taxminan 8 000 ta sud ishi tahlili) advokat ishtirokining amaliy ta'sirini ko'rsatadi: advokat bilan himoya qilingan javobgarlar 31 % (foiz) hollarda to'liq g'alaba qozongan, o'z-o'zini himoya qilganlar faqat 12% (foiz) ida muvaffaqiyatga erishgan; vakilsiz tomonlarning 79 % (foizi) ishni to'liq yutqazgan. Bu raqamlar advokat monopoliyasi siyosatining empirik asoslanishiga muhim hissa qo'shmoqda. AQShda Rebecca Sandefur tomonidan 50 yil ichidagi 45 ta tadqiqotni qamragan meta-tahlil ham advokatning ishtiroki ahamiyatini «spektakulyar» deb baholaydi.

**Fransiyada** 2023-yil 1-dekabrda e'lon qilingan 1125-sonli Dekret advokatlik kasbi boshlang'ich va uzluksiz ta'limini tubdan isloh qildi. Mazkur hujjat olti yillik tayyorgarlik jarayonining yakuni bo'lib, uning asosiy elementlari quyidagichadir: barcha mintaqaviy ta'lim markazlari (CARPA) uchun yagona ichki reglament joriy etildi; ta'limning

alternativ tizimi (amaliyot va nazariya o'zaro uyg'unlashtirilgan holda) rasmiy maqomga ega bo'ldi; har bir talaba advokati uchun maxsus pedagogik kurator tayinlanishi majburiylashtirildi. 2024-yil 20-iyundagi buyruq bilan CARPA (advokatlik aptitudina sertifikat) imtihoni ham qayta tashkil etildi: 5 soatlik yagona yozma topshiriq bekor qilinib, uzluksiz baholash tizimi — deontologiya bo'yicha og'zaki, staj hisobotlari bo'yicha himoya — joriy etildi.

Fransiyada barcha advokatlar uchun majburiy uzluksiz ta'lim joriy etildi: yiliga 20 soat, jumladan har ikki yilda 10 soat kasbiy etika bo'yicha. Milliy tashkilot bajarilishini nazorat qiladi; mahalliy barlar majburiyatlarni tekshirib, buzilishlar uchun intizomiy choralar ko'radi. Majburiyat bajarilishini mahalliy barlar (*conseil de l'ordre*) nazorat qilib, bajarmaganlar rejestrndan o'chirilishi mumkin. Bu tizim advokatning doimiy malaka oshirishini "professional shartnoma"ning tarkibiy sharti sifatida belgilash orqali Kronman professionalizm nazariyasidagi ijtimoiy shartnoma konsepsiyasini amaliy huquqiy mexanizmga aylantirishdir.

Bundan tashqari, Fransiyada joriy etilgan CARPA tizimi: bar tomonidan boshqariladigan alohida hisob raqamlarida saqlangan advokatlar mablag'lari moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi va mijozlar pul mablag'larini advokat bankrotligidan himoya qiladi.

## Xulosa

Advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilishning xalqaro tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon shunchaki qonunchilik normalarini yangilash emas, balki



advokatura institutining davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda tutgan o'rnini qayta belgilaydigan konseptual-doktrinal rivojlanishdir. Tadqiqot natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

**Birinchidan**, modernizatsiyaning fundamenti — advokaturaning institutsional mustaqilligi va o'z-o'zini boshqarish (self-governance) modeliga o'tishidir. Yaponiya va Yevropa davlatlari tajribasi shuni isbotlaydiki, advokatlik korpusi davlat organlari nazoratidan xoli bo'lib, litsenziyalash va intizomiy nazoratni mustaqil amalga oshirgandagina, inson huquqlarining haqiqiy kafolatiga aylanadi.

**Ikkinchidan**, raqamli transformatsiya va LegalTech integratsiyasidir. Singapur tajribasi ko'rsatganidek, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning joriy etilishi advokatning ish samaradorligini oshirish bilan birga, yuridik xizmatlar bozorining shaffofligini ta'minlaydi. Bu jarayonda texnologiya shunchaki yordamchi vosita emas, balki adolatga erishish (Access to Justice)ning zamonaviy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Shularni hisobga olgan holda milliy qonunchiligimizda ham advokat va suniy intellect munosabatlari tartibga soluvchi qonunchilik normasi qabul qilinsa, himoyachi, vakillarni ishlarini oson va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, modernizatsiya jarayonida advokaturaning ijtimoiy missiyasi — "kvazi-jamoat" tabiati kuchayadi. Singapurdagi "Public Defender" instituti va Yevropa davlatlaridagi "Pro Bono" tizimlari shuni ko'rsatadiki, modernizatsiya qilingan advokatura nafaqat xususiy manfaatlarni himoya qiladi, balki jamiyatda huquqiy tenglikni o'rnatishda davlatning strategik sherigiga aylanadi.

**To'rtinchidan**, professional sifatni saqlashda uzluksiz kasbiy ta'lim (CLE) va yuridik maktablar (Law Schools) tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaponiya modelida ko'rsatilganidek, advokatlar tayyorlashning o'ziga xos ilmiy-amaliy standartlarini yaratmasdan turib, institutning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish imkonsizdir. Aynan shu kabi o'qitish tizimlari bizda ham joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash zarurki, advokatlik institutini modernizatsiya qilish milliy an'analar va xalqaro standartlarning uyg'un sinteziga tayanganida muvaffaqiyatli bo'ladi. Har bir davlatning o'z tarixiy merosi, huquqiy madaniyati va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi — mazkur yo'nalishdagi xalqaro amaliyotning asosiy xulosasi hisoblanadi.

## References:

1. Akane T. Reform of the Legal Training System in Japan // UNAFEI Joint Seminar with Indonesia. Session 3. — P. 91-115. URL: [https://www.unafei.or.jp/activities/pdf/joint\\_indonesia/session3.pdf](https://www.unafei.or.jp/activities/pdf/joint_indonesia/session3.pdf).
2. Akhmedi M. Kazakhstan's New Legal Profession Model to Achieve Efficiency, Improve Quality of Services // The Astana Times. — 17 October 2023. URL:



<https://astanatimes.com/2023/10/kazakhstans-new-legal-profession-model-to-achieve-efficiency-improve-quality-of-services/>

3. Conference in Kazakhstan 'Stronger when united: new challenges and perspectives. Astana, 27–28 October 2016.- 50 p.
4. Rustamboyev M.X., Tuxtasheva U.A. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati: darslik. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. – 425 b.
5. Guide on the Use of Generative AI Tools by Court Users. 1 October 2024 // Supreme Court of Singapore. URL: <https://www.judiciary.gov.sg/docs/default-source/news-and-resources>
6. Hayashi M. Constructing the Legal Profession in Modern Japan: PhD thesis. — London: SOAS University of London, 2016. — 348 p. URL <http://eprints.soas.ac.uk/26667>
7. Kenjebayeva A. The Development of Kazakhstan's Legal Profession and Code of Ethics // PRG (Paragraf). 29 April 2016. URL: [https://prg.kz/document/?doc\\_id=34332558](https://prg.kz/document/?doc_id=34332558)
8. Legal Aid and Advice Act 1995 (LAAA 1995), № 20 // Singapore Statutes Online. URL: <https://sso.agc.gov.sg/Act/LAAA1995>
9. Pro Bono SG. Justice for All: Annual Report 2022/2023. — Singapore, 2023. URL: <https://www.probono.sg>.
10. Public Defenders Act 2022 (PDA 2022), № 23 // Singapore Statutes Online. URL: <https://sso.agc.gov.sg/Act/PDA2022>.
11. The Changing Lawyer // The Singapore Law Gazette. — October 2024. URL: <https://lawgazette.com.sg/practice/practice-matters/the-changing-lawyer/>.
12. Кругляков С.В. Социально-правовые функции адвокатуры Республики Сингапур: институциональные основы и механизмы реализации бесплатной юридической помощи // Евразийская адвокатура. — 2025. — № 6 (77). — С. 71. DOI: [https://doi.org/10.52068/2304-9839\\_2025\\_77\\_6\\_71](https://doi.org/10.52068/2304-9839_2025_77_6_71).
13. Sabirboyev S.G'. G'arbiy Yevropa davlatlarida advokatura institutining o'ziga xos xususiyatlari va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — Vol. 2. — № 4. — B. 798–812.